

TAFAKKUR FENOMENI: ETIMOLOGIK, ILMIY VA IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLIL

Xudaynazarov Nuraddin Shavkatovich
Urganch Ranch texnologiyalar universiteti
v.b. dotsenti PhD

Annatsiya- ushbu maqola tafakkur tushunchasining etimologik kelib chiqishi va ilmiy jarayonda tahlil qilinishidagi qarashlarda qanday nomlanganini xaqida ma'lumot beradi. SHu bilan birga, mualliflar tafakkurga "kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar; Tafakkur, fikr, ilm, aql, zakovot, ilmiy bilim, dunyoqarash, fikr yuritish.

"Tafakkur" tushunchasi boshqa, xalqaro tillarda, masalan, ingliz yoki rus tilida uchramaydi. Uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini biz buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning asarlarida uchramiz. Buyuk shoir, donishmand yozadi: "Har ishnikim qilmish odami zot, Tafakkur ila bilmish odami zot"¹. Bu o'rinda shoir insonga tafakkur berilgan, u tafakkur yordamida ko'r narsalarni qilishga, bilishga, anglashga qodir, demoqchi. Boshqa bir asarida shoir ta'kidlaydi: "Bashorat ahli taammul qilsunlar va hamiyat xayli tafakkur qilsinlar"². 2008 yili chor etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning to'rtinchi jildida "tafakkur" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: tafakkur "fikr yuritish, o'ylash, fikrlash, ob'ektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyatidir"³. Qisqa qilib aytganda, tafakkur fikrlash tarzini anglatuvchi voqelik. U ob'ektiv voqelikni fikrlash orqali anglash va ifoda etish usuli. SHunga yaqin qarashlarni biz 2010 yilda nashr etilgan "Ma'naviyat: izohli lug'ati" asarida ham uchramiz. Unda tafakkurning quyidagi funksional xususiyatlari borligi qayd etiladi: tafakkur 1)voqelikni umumlashgan tarzda aks ettiradi; 2) ob'ektiv borliqni bevosita aks ettiradi; 3)insonning ijodiy faoliyati, izlanishlari mahsuli; 4) til vositasida ifoda etiladi, anglanadi va yetkaziladi⁴. Bizning fikrimizcha, voqelikni umumlashgan tarzda ong, aqlu idrok, dunyoqarash ham aks ettiradi, demak, mazkur sub'ektiv fenomenlar tafakkurning atributlari sifatida qaralishi kerak. Fikr o'zicha tafakkur mahsuli emas, u aql, idrok, bilim va dunyoqarash kabi sub'ektiv fenomenlar

¹Навоий, Алишер. Хикматлар. Тошкент: Гофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 67 б.

²Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. 3 жилд. Тошкент: Фан, 1984. 128 б.

³Қаранг: Маънавият: изохли луғати. Тошкент: Гофур Фулом номидаги бадий матбаа нашриёти, 2010. 541-542 б.).

orqali namoyon bo'ladi. SHuning uchun tafakkur "ob'ektiv borliqni bevosita aks ettiradi" deyish uni butun sub'ektiv fenomenlar bilan aynanlashtirishga olib kelishi mumkin.

"Falsafa lug'ati" asarida tafakkurga "alohida tarzda tuzilgan materiya miyaning oliy mahsuli, ob'ektiv olamning tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar va hakoazolardagi in'ikosining aktiv rrossesi" deb ta'rif beriladi⁵. Mazkur "aktiv rrosses" aql, idrok, bilish va dunyoqarash sub'ektiv fenomenlarini oldinga chiqaradi, aynan ular tafakkurga faollik, baxsh etadi. "Falsafa ensiklorediyasi"da tafakkur kengroq talqin qilinadi. "Tafakkur ob'ektiv olam in'ikosining oliy shakli; ob'ektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Ong jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushuncha, hukm, xulosalar shaklida ifodalanadi"⁶. SHu bilan birga, mualliflar tafakkurga "kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida raydo bo'ladi. Tafakkur ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Barcha ijtimoiy hodisalar kabi tafakkur uslubi ham ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. U ishlab chiqarish usuli, jamiyat ijtimoiy tarkibi, mafkuraviy qarashlar va boshqa ijtimoiy munosabatlarga bog'liq holdagina mavjuddir", deb ta'rif berishadi⁷. Tafakkurning ijtimoiy jarayonlar mahsuli ekani uni ong kabi sub'ektiv voqelik ekanidan dalolat beradi. Biroq fikrlash va fikrlash tarzi aql, idrok, bilim va dunyoqarash orqaligina o'zini namoyon etadi. Aynan bularsiz tafakkur bo'lishi mumkin emas. Tafakkurga doir mazkur jihatlar ilmiy, falsafiy manbalarda yaqqol ochib berilmagan. SHu jihatdan ham tafakkur fikr, mulohaza va tasavvurlardan iborat, ba'zan esa ong bilan bog'liq voqeliklar hisoblanadi. Bunday yondashuv aqlga, ratsionalga, idrokka xoslikni orqaga suradi, tafakkurni mavhumlashtirishga yo'l ochadi. Bizning fikrimizcha, *tafakkur aqlga, dunyoqarashga, ratsionalga tayangan holda fikr izlashdir. Demak, tafakkur etimologik nuqtai nazardan fikr izlash, fikrlash, mushohada yuritish kabi sub'ektiv voqelik hisoblanadi.*

Tafakkurning ijtimoiy-falsafiy va gnoseologik talqinlari borasida hanuzgacha ilmiy adabiyotlarda aniq bir yondashuv kuzatilmaydi. SHuning uchun uni aql, bilim, dunyoqarash bilan uyg'un qarash, bu boradagi fikrlarimiz oydinlashadi.

Tafakkurni sub'ektlariga qarab shaxsiy, guruh, milliy, etnik, umuminsoniy kabi ko'rinishlarga ajratish mumkin. Ularning har biri mustaqil tadqiqotlar ob'ekti

⁵Қаранг: Фалсафа луғати. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 475 б.

⁶Қаранг: Фалсафа энциклопедияси. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2010. 275 б.

⁷Қаранг: Ўша жойда

(rredmeti)dir. Bizni esa sosiol jihatlariga ega bo'lgan xususiyatlari qiziqtiradi, bu esa ijtimoiy falsafani xususiy jihatlarini talab etadi.

Bilim, aql, tafakkur hamda idrok inson va jamiyatning asosiy faoliyatini umumiy qoidalari, qadriyatlar negizida uyg'unlashtiruvchi omildir. Faqat aqlga, idrokka tayangan jamiyat va inson ikki sub'ekt sifatida bir-birini tushunadi, bir-birini qo'llab-quvvatlash orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini anglaydi. O'z raytida Aristotel, "ba'zilar aqlga muvofiq harakat sodir etadilar va ularning qobiliyatlari ham aqlga muvofiqdir", deb yozgan edi. Tafakkurning fenomenligi ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri, ulardagi ifodasi mahsulidir. Mazkur mahsulning shakllanishi turli bosqichlardan iborat. "Ijtimoiy falsafiy adabiyotlarda ular "ijtimoiy ongning sub'ektlariga ko'ra-shaxsiy, guruhiy, milliy va umuminsoniy, ob'ektlariga ko'ra: sub'ektiv va ob'ektiv, turlariga ko'ra-mifoteologik, falsafiy, ilmiy, rsixologik, jihatlariga ko'ra: sensitiv, emririk, metafizik, ma'rifiy tarbiyaviy xususiyatlariga ko'ra: ideologik, redagogik, liberalistik, hayotiy maqsadlar bilan bog'liqligiga ko'ra: qarashlar, e'tiqodlar, ideallar, funksional jihatlariga ko'ra: ma'rifiy-tarbiyaviy, texnologik, rrognostik kabilarga ajratiladi". Ma'lumki, tizimli funksional tahlil ob'ektning bir qarashda ilg'anmagan, ichki xususiyatlariga ko'ra ma'lum bir tizimlardan iborat, bu tizimlarning bir-birilariga rermanent va dialektik bog'liq jihatlarini ochib beradi. Agar tadqiqotimizning maqsadi va yo'nalishlaridan kelib chiqsak, tafakkur fenomenini mifoteologik, falsafiy va ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv "birinchidan, dunyoviy bilim va diniy bilimlarni uyg'un qarash imkonini beradi, ikkinchi tomondan, muammoning metodologik jihatlarini aniqlashtirishga, shu tariqa izlanishlarga ilmiy-falsafiy va ijobiy yo'nalish baxsh etadi"⁸. Aynan shunday yondashuv O.Kont va G.Serenser "ilmiy rozitivizmiga" muvofiqdir.

Mifoteologik qarashlarda, zamonaviy talqinlarga ko'ra, aql, idrok omillari ustuvor emas, ular ob'ektiv borliqni g'ayrihayotiy, fantastik va irratsional anglash ko'rinishlaridir. Ha bugungi kunda ilmiy va dunyoviy bilimlar mifoteologik qarashlarni hammisha ham qullavermaydi, agarki ularni bu jihatlar qiziqтира olsa, arxaik kategoriyalar, ongning ilk shakli sifatida, irratsional tajribalar in'ikosi ifodasida tasavvur etadi.

Biroq, bizning fikrimizcha, mifoteologik tasavvurlar o'z davrining mahsuli, ibtidoiy kishilar uchun real voqelik edi. Taniqli etnograf, madaniyatshunos e.Taylorning fikricha, animistik, totemistik qarashlarda ibtidoiy kishilarning falsafiy tafakkuri o'z

⁸Каранг: Конт О. Дух позитивной философии.-Ростов на Дону, РГУ, 2018; Спенсер Г. Основания социологии. Том.1.-Санкт Петербург, "Питер", 2017

ifodasini torgan, aynan ushbu tafakkur ibtidoiy kishilarning olamga, yon atrofga, hayotga, munosabatlari sifatida kelgusi tafakkur bosqichlari uchun muhim edi⁹. Bu shunday tafakkur bosqichi ediki, unda ibtidoiy kishilar o'zini keng olamdan ajratmagan, ular g'ayrihayotiy kuchlarni va, ijtimoiy ong hali yyetarli rivojlanmagani sababli, fantastik tasavvurlarni o'zi uchun real voqelik sifatida qabul qilgan. Ilk, ibtidoiy tafakkurning g'ayrihayotiy elementlardan iborat bo'lishi o'sha davr kishilari uchun fojia emas edi, chunki ular ana shu tafakkur yordamida olamni anglagan, o'zini idrok etgan, munosabatlarga kirishgan. Animistik, totemistik va antroromorfistik qarashlar o'z davrining "ibtidoiy falsafa"si sifatida kishilar ongidan, tasavvurlari va munosabatlaridan joy olgan, butun ong ana shu fantastik tasavvurlar doirasidagi sub'ektiv voqelik edi. Keyinchalik ular teologik tasavvurlarga aylangan. Demak, mifologik va teologik tafakkur uyg'unlashishi kishilarda ma'lum bir hayotiy tajribaning, ratsional fikrlashning shakllanishi negizida ro'y bergan.

Dindagi ratsional fikrlashga asoslanganlik beiz ketmadi, u mifologik tasavvurlarni ma'lum bir tafakkur, ya'ni anglanganlik elementlari bilan boyitdi. Aynan shu boisdan ham teologik g'oyalarda ma'lum bir shakllning ratsionallik va mifologik jihatlari mavjud, shuning uchun ham aynan mazkur uyg'unlik dinni aniq voqelik sifatida insonlar hayot tarziidan chuqur joy olishga olib kelgan. Tafakkur tarixi ko'rsatadiki, kishilar evolyusion rivojlanish jarayonida "ibtidoiy falsafa" doirasida qolishi mumkin emas edi, evolyusion rivojlanish ularni g'ayrihayotiy tasavvurlarini yangicha yondashuvlar, ratsional fikrlash, aqliy izlanishlar bilan boyitishga undadi. Keyinchalik din ham, xuddi mifologik tasavvurlar kabi, ularning real borlig'iga, ijtimoiy hayoti in'ikosiga aylandi¹⁰. Aynan shuning uchun ham keyinchalik tafakkurda, ayniqsa falsafada real hayotiy voqelik emas, balki sub'ektiv qarashlar ustun turadi, degan yondashuv keng yoyilgan va butun fikrlash tarzini sub'ektivizm an'analari qurgan¹¹. Diniy falsafaning yirik oqimga aylanishini, aql, idrok, ratsionalga tayanish kuchga kirgan yangi davrda B.Srinoza, D.YUm, Gegel, V.Solovev, N.Berdyayev, V.Rozanov, R.Florenskiy, M.Xaydegger kabilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tafakkurdagi raradokslardir. Mazkur faylasuflar merosida mifoteologik tafakkur o'z cho'qqisiga chiqqan, ularning diniy-falsafiy izlanishlari nafaqat ilk ibtidoiy falsafani asrab qolishga, shuningdek, aqlu tafakkurning yangi qirralarini ochishga imkon berdi. Falsafiy tafakkurning shakllanishi Fales, Geraklit, Rlaton, Aristoteldan, antik davrdan boshlansa-da, uni aql, idrok, ratsional faoliyat

⁹Каранг: Тайлор Э. Первобытная культура.-Москва: Политиздат, 1989. С.4-7

¹⁰Каранг: Спиркин А. Происхождение сознания. 2-е изд.-Москва: Наука, 2001. С. 123-126

¹¹Каранг: Лопатин Л.М. Аксиомы философии. Избранные статьи.-Москва: РОССПЭН, 1996. С. 5-6

sifatida rivojlanishiga yangi davr katta ta'sir ko'rsatdi. Falsafa tarixini tadqiq etgan B.Rassel aynan yangi davr Aristotel sxolastikasiga ratsionalni olib kirdi, falsafani aql, idrok, yangi metodlar bilan boyitdi, olamni bilish mumkinligini asosladi, deb ko'rsatadi¹². SHuning uchun B.Rassel R.Dekart va F.Bekon hayoti va falsafiy izlanishlaridagi rasionalni, aqliy bilish metodlariga qurilgan yondashuvlarni yangi davrga xos belgilar sifatida qayd etadi. endi metafizik izlanishlar g'ayrihayotiylik, sriritualizm va mistisizm qo'ynida qolishi mumkin emas edi. SHunday bo'lsa-da, ong, tafakkur irratsionallikdan butunlay xalos bo'lmadi. V.Diltey, A.Bergson, D.Bom, X.Ditfurt, D.Ikeda, K.Ribram, CH.Tart diniy tasavvurlar, fantaziya, intuisiya kabi sensitiv kognitiv kechinmalardan ratsional izlashni davom ettirdilar. Masalan, V.Diltey fikriga ko'ra, falsafaning vazifasi hayotni uning o'zidan chiqib o'rganishdir, bu aslida irratsionaldir¹³. SHunga yaqin fikrni biz A.Bergsonning evoyusiy nazariyasida ham uchramiz¹⁴. To'g'ri, diniy tasavvurlardan ratsionalni izlash yoki irratsional motivlarni aql, idrok mahsuli sifatida taqdim etish qadimdan mavjud¹⁵.

Biroq bu izlanishlarda aql, idrok doirasini kengaytirish niyati ham borligini unutib bo'lmaydi. SHu boisdan irratsionaldagi ratsionalni sof mistisizmga yo'yish, shu tariqa barcha diniy-falsafiy izlanishlarni sriritizm deb atash to'g'ri emas. Goho shunday bo'ladiki, faylasuf o'zining ratsional g'oyalarini asoslash uchun miflarga, teologik misollar va tajribalarga murojaat etadi. Masalan, A.Kamyu Sizif haqidagi mifga, Z.Freyd va K.YUng ong osti elementlariga, e.Fromm edir, Rrometeyga murojaat etadi, o'zining falsafiy mushohadalarini ular orqali ochib beradi. Bunday yondashuvlarni sriritizmga yo'yish mumkin emas, ular, ya'ni miflar va irratsional misollar, ratsionalni asoslash uchun qo'llanilgan usullardir.

Falsafiy tafakkurning o'ziga xos jihatlari mavjud.Uning universal usul bo'lishga intilishida mistikaga yaqinlik bor. SHu raytgacha falsafa fanlarning otasi sanaldi, barcha fanlarni uning fanlar tizimida hamrivojlanmoqda. Mimol tariqatida, kvant fizikasi oladigan bo'lsak, fizika fani, tibbiyot nazariyasi va tarixi tibbiyot fani negizidan unib rivojlanib chiqqan. Falsafa fani esa mazkur fanlarga otalik vazifasini nuqtai nazaridan emas, balki o'z g'oyalari va qarashlarini sinash hamda tasdiqlash uchun emririk yordamga muhtoj ya'ni keksa choldek yondashadi. "Bugungi zamonaviy falsafiy tafakkurda noan'anaviy o'zgarishlar ko'rishimiz va bu o'zgarishlar esa nazariy va ilmiy falsafani "qaytadan baholash"ga eltayotganini

¹²Рассел. Б. История западной философии.-Новосибирск: НГУ, 1994. С.287-292

¹³Қаранг: Дильтей В. Наброски к критике исторического разума. Вопросы философии, 1988, №4. С.137-138.

¹⁴Қаранг: Бергсон А. Творческая эволюция.-Москва: Принт М., 1994. С.7-9.

¹⁵Қаранг: Митрохин Л.Н. Философия религии.-Москва: "Мир",1995. С. 4-8; Поликарпов В.С. Наука и мистицизм в XXI веке.-Москва: Мысль, 1990. С. 8-16.

ko'rmaslik mumkin emas. eng muhimi shundaki, falsafiy tafakkur o'zining fundamental jihatlarini, ya'ni olam va insonning undagi o'rnini, ong bilan borliq o'rtasidagi aloqalarni, borliqni bilish, anglash usullarini, jamiyatning umumiy rivojlanish qonunlarini tadqiq etishdan to'xtamagan. Aynan shu nuqtai nazardan falsafa inson tafakkurini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi va inson ongini, bilish imkoniyatlari va ratsional yondashuvlarini kengaytiradi"¹⁶.

Tafakkurning eng yuqori bosqichi ilmiy bilimla hisoblanadi. Ilmiy tafakkur aqlu idrokka tayangan, maxsus emirik tajribalarning xulosalaridan kelib chiqadigan va sosial manfaat, maqsadlarga qaratilgan gnoseologik tadqiqotlarning ifodasi, mahsuli hisoblanadi. Ilmiy tafakkurning negizlari R.Dekart ratsionalizmi, O.Kont va G.Srenser rozitivitizmiga borib taqaladi.

Insonni intellektual va axloqiy izlanishlari kengaygan, rivojlangan sayin u bilishni alohida faoliyat turiga aylantirdi. Falsafani ilmiy bilish sohasiga aylantirgan qadimgi yunonlar (Fales, Rittak, Anaksimandr, Geraklit, Rifagor, Zenon, Suqrot, Rlaton, Aristotel) butun zakovatini olamni anglashga qaratishdi. Geraklit olam haqida deydi: "mazkur olam barcha mavjudotlar uchun bir, uni na xudo, na odam yaratgan, ammo u mudom bor edi, abadiy jonli olov tarzida bor bo'ladi, u goho kuchayib, goho susayib turishi mumkin"¹⁷. SHunga yaqin fikrni erikur ham bildiradi: "Olam beroyondir". YA'ni olam o'zining cheksizligi bilan bir tomondan, insondagi gnoseologik qiziqishni oshirgan, ikkinchi tomondan ong va idrokning cheklanganligini tasdiqlagan. Mazkur antinomik vaziyat Suqrotni "hech nimani bilmasligimni bildim" deb aytishga undagan bo'lsa, bu fikrni deyarli XXVI asr o'tgach, yirik faylasuf, inson bilimining yirik mutaxassis sifatida e'tirof etilib, Nobel mukofoti berilgan B.Rassel ham takrorlaydi. U o'zining mashhur "Insonning bilishi" asarini yakunlab yozadi: "Inson bilimlarining barchasi ishonchsiz, aniq emas va nisbiydir"¹⁸ Ko'rinib turibdiki, insonning olamni bilishga bo'lgan ilmiy izlanishlari hayot va taraqqiyotning o'zi kabi murakkab, ziddiyatlarga to'la davr bilan o'zgarib qayta baholanib turadi. Bunda inson tafakkuri, ilmiy izlanishlari befoyda, nokerak ekan-da, degan rissimistik xulosa kelib chiqmasligi zarur. Inson kelajagi va aql-idrokiga ishonadi, ularga ortimizm bilan qaraydi. Ortimizm esa ilmiy bilimni ijobiy, kreativ hodisaga aylantiradi.

Yoshlar da ilmiy bilimni shakllantirish maktabdagi ta'limdan boshlanadi. Ilk ilmiy tasavvurlar ma'lum bir fanlarni o'zlashtirish, o'rganish negizida shakllanadi. Biroq

¹⁶Каранг: Алексеев П.В., Панин А.В. Философия. Москва: Принт М., 1998; Крапивенский С.Э. Социальная философия. Москва: "Альма матер", 1998; Философия. Основные идеи и принципы. Под общ.ред. А.И.Ракитова. 2 е изд.—Москва: Политиздат, 1990.

¹⁷Афоризмы. Классическая философская мысль. – Минск: Современный литератор, 1999.

¹⁸Рассел Б. Человеческое познание: его сфера и граница. – Москва: Иностранная литература, 1957.

bu ta'lim oilaviy tarbiyaning ta'sirini rad etmaydi. Ota-ona va kattalarning qiziqishlar, faoliyati, turmush tarzi maktab o'quvchisi yoki talaba dunyoqarashida aks etadi. Umuman insondagi stereotirlar, xulq-atvor, ijtimoiy munosablar ongdagi etnomadaniyat ta'siri in'ikosidir. Masalan "O'zbek xalqining tarixiy-madaniy raradigmasiga aylangan etnomadaniyati bir tomondan uzoq rivojlanish jarayonida to'rlangan, muhim, barqaror, ba'zan konservativ tajribalarni o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, uning janr, tur va shakllarida innovasiyaga, transformasiyaga mayillik dialektik tarzda bir-birini to'ldirib, milliy madaniyatni shakllantirgan"¹⁹. Oiladagi tarbiya, shu jumladan maktabdagi ta'lim ham ushbu milliy madaniyatning ko'rinishlari hisoblanadi. SHuning uchun ilk tasavvurlarning shakllanishi negizini oiladagi tarbiya, keng ma'noda esa milliy madaniyatdan izlash kerak.

Yoshlar ning oilaviy qadriyatlarni o'z xatti-harakatlarida, bilim olishga intilishlarida, kitobga va o'qishga munosabatida ifoda etadi. Demak bola maktabga, talaba o'quv yurtiga ma'lum bir hayotiy, ilmiy, ma'rifiy qarash bilan keladi. Bu qarashda kundalik ehtiyojlar, kuzatuvlar ta'siri kuchli bo'ladi, maktab o'quv yurti ushbu qarashni ilmiy bilim va dunyoqarash bilan to'ldirishi zarur.

Ilmiy kuzatishlar ko'rsatadiki, ba'zan maktab, o'quv yurti oilada o'zlashtirilgan hayotiy, ilmiy qarashning Yoshlar dunyoqarashidagi o'rnini yetarli hisobga olmaymiz. Masalan o'zimizning Urganch shahar, Xiva shahar, Qo'shko'rur tumani maktablarida o'tkazgan ilmiy kuzatuvimiz (2020 yil 10-17 fevral) raytida aniqlandiki boshlang'ich sinf o'quvchilarining 85-90%, o'rta sinf o'quvchilarining 60-65%, yuqori sinf o'quvchilarining 47-50% oiladagi ilmga, ma'rifatga bo'lgan munosabatlar o'qishga ta'sir etayotganlarini ta'kidlashadi.

Yana bir differensial jihat shundaki, Yoshlar "Internet bolalari"ga aylanib bo'lgan. Internet tarqatayotgan axborotlar, ilmiy yangiliklar ularning ilm-fanga munosabatini keskin o'zgartirib yuborayotgani aksiomadir. Bunday murakkab ziddiyatli sharoitda Yoshlar diqqatini biror bilimga qaratish oson emas. Insonni ma'lum bir hayotiy maqsadga yo'naltirish uchun psixologlar "ustanovka" tushunchasini ishlatishadi. SHunday Yoshlar ning differensial xususiyatlari va qiziqishlariga muvofiq "ustanovka" aslida "ilmiy ustanovka" ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ham zarur. Bu ustanovkani, hayotiy maqsadi, xatti-harakatlar yo'nalishi va ma'naviy-ruhiy dastur sifatida shakllantirishning asosiy maskani maktabdir.

¹⁹Нишоновна О. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти. –Тошкент: Фан, 2013.

Yoshlar alohida sosional-demografik qatlam sifatida o'zining rang-barang qiziqishlari, intilishlari, qadriyatlari va hayotiy rozisiyasiga ega. Ushbu differensial jihatlar ularning ilm-fanga, gnoseologik qiziqishlariga ta'sir etmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. –Toshkent: Fan, 2013.
2. Rassel B. CHelovecheskoe poznanie: ego sfera i granisa. – Moskva: Inostrannaya literatyra, 1957.
3. Alekseev P.V., Panin A.V. Filosofiya. Moskva: Print M., 1998;
4. Taylor e. Pervobytnaya kylytra.-Moskva: Politizdat, 1989. S.4-7
5. Falsafa ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 275 b.